



O'QUVCHILARGA XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA YOZMA NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Raufova Movluda Nurxonovna

Toshkent Davlat Texnika Universiteti tayanch doktoranti

Tel:

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan turli pedagogik yondashuvlar, metodlar va texnikalar muhokama qilinadi. Ingliz tilida matnlarni to'g'ri tushunish, tez va samarali o'qish, hamda fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalash ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan usullar keltirilgan. O'qish va yozish ko'nikmalari integratsiyasini ta'minlash orqali yozish ko'nikmalarini rivojlantirishning muhimligi alohida ta'kidlangan. Shuningdek xulosa qismi pedagoglar va ta'lim muassasalari uchun o'quvchilarning xorijiy tillarda yozish ko'nikmalarini rivojlantirishni oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: xorijiy til ko'nikmalari, yozma nutq, interfaol ta'lim, o'qish va nutq integratsiyasi, harf va harf birikmalari, nutqiy savodxonlik va kommunikatsiya, egotsentrik nuqt va dialog.

Аннотация: В статье обсуждаются различные педагогические подходы, методы и техники, используемые для развития навыков чтения и письма при обучении учащихся английскому языку. Представлены методы, направленные на улучшение навыков правильного понимания текстов на английском языке, быстрого и эффективного чтения, а также четкого и понятного выражения своих мыслей. Также подчеркивается важность развития навыков письма путем обеспечения интеграции навыков чтения и



письма. Заключительная часть также содержит практические рекомендации для педагогов и образовательных учреждений, направленные на повышение развития навыков письма учащихся на иностранных языках.

Ключевые слова: иностранные языковые навыки, письменная речь, интерактивное обучение, интеграция чтения и речи, буквы и буквосочетания, речевая грамотность и коммуникация, эгоцентрическая точка и диалог.

Annotation: The article discusses various pedagogical approaches, methods, and techniques used to develop reading and writing skills in teaching English to students. Methods aimed at improving the skills of correctly understanding texts in English, reading quickly and effectively, as well as expressing one's thoughts clearly and comprehensibly are presented. The importance of developing writing skills through ensuring the integration of reading and writing skills is also emphasized. The concluding part also contains practical recommendations for teachers and educational institutions aimed at improving the development of students' writing skills in foreign languages.

Keywords: foreign language skills, written speech, interactive learning, reading and speech integration, letters and letter combinations, speech literacy and communication, egocentric point and dialogue.

Har qanday davlat, uning ijtimoiy-iqtisodiy qudrati nafaqat tabiiy, yerosti boyliklari, harbiy salohiyati bilan balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati, ma'naviyati, ilmiy salohiyatiga ega yoshlari bilan o'lchanadi. Shu nuqtai nazardan respublikamizda sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash, ilmiy savodxonlik oshirish maqsadida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish borasida miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston ko'pmillatli va ko'ptilli aholi qatlamiga ega bo'lib, xalqaro mehnat bozori rivojlangan, ilmiy-innovatsion g'oyalar dunyosida xorijiy til ko'nikmalariga



ega yoshlar mamlakat tayanchi sifatida ko'zga tashlanmoqda. Chet til ta'limi yoki N.Galskova chet tili ta'limini tadqiqot ishlarida lingvomadaniy ta'lim deb yuritar ekan, u avvalo xorijiy tilni yangi va foydali axborotlarni olish, saralash, qayta ishlash va yetkazishning sarhad bilan yangi imkoniyatlar eshigi sifatida e'tirof etadi.[2] So'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitishni tizimini tubdan yangilashga oid hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan, qaror, farmon va farmoyishlarda yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun imkoniyatlar yaratish bosh maqsad etib belgilangan.[1].

Ma'lumki, har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi. Metodik adabiyotlarda xorijiy tilga bo'lgan ehtiyojni tahlil qilishda ta'lim sharoitiga bog'liq holda bir tomondan obyektiv, ikkinchi tomondan esa subyektiv ehtiyojlar alohida farqlab kelinmoqda. Obyektiv ehtiyoj deganda biz avvalo:

a)o'quvchilarning xorijiy tilni o'rganishdagi yosh va psixologik xususiyatlari, qobiliyat va ularda mavjud motivatsiyalari;

b)dastlabki xorijiy tillarni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka darajalari;

c)xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan davlat va jamiyatda mavjud talab va ehtiyojlar, pedagoglar va o'quvchilar malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan dasturiy talablar haqidagi ma'lumotlarni tushunamiz.

Subyektiv ehtiyojlar esa asosan o'quvchilarning:

a)xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan shaxsiy munosabat va qarashlari;

b)chet tillarini o'rganishda qo'llanilayotgan usul, strategiya va texnologiyalari;



c) xorijiy tillarni o'rganishda asosan qaysi ko'nikmalarni rivojlantirishga qiziqishlari (speaking, listening, reading, writing) haqidagi ma'lumotlar nazarda tutiladi.[3].

A.Sodiqov, J.Bo'ronov, O'.Q.Yusupovlarning tadqiqot ishlarida o'zbek va ingliz tillar grammatikasidagi qiyosiylik hamda obyekt va subyektiv ehtiyojlar keng qamrovda yoritilgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi leksikaning va interferensiya hodisasining o'rganilayotgan muammo nuqtai nazaridan qiyosiy tahlilida, ayniqsa ingliz va o'zbek tilidagi fe'llarni qiyosiy tahlil qilish natijasida ular o'rtasidagi shaxs, son, zamon, mayl, nisbat kabi morfologik va grammatik belgilar bo'yicha farqlar, nutqiy interferensiyaning keltirib chiqaruvchi lingvodidaktik va metodik qiyinchiliklar aniqlandi[4].

Inson nutqi, uning yozish ko'nikmalari jismoniy jihatdan nutq fiziologiyasida, nutqning sodir bo'lishi va uni idrok etilishi psixolingvistikada ilmiy tadqiq etiladi. Tadqiqotimizda chet tilini o'qitishda yozish ko'nikmalarini rivojlanishi va chet til o'rganishda fonetik, leksik hamda grammatik ko'nikmalarning rivojlanish jarayonlari kabi masalalar qiyosiy tadqiq etiladi. Shuningdek, kasbiy ta'lim tashkilotlari ta'lim tizimi va dasturlarida chet tilini o'qitishda ona tili ko'nikmalarining ijobiy (transpozitsiya) va salbiy (interferensiya) ta'sir darajasi ham tahlil etiladi. Ma'lumki, chet tilini o'rgatishda og'zaki nutq bilan birgalikda yozish jarayonlari ham hamkorlikda kechadi. Yozma nutq bu fikrni ongda shakllantirish va uni so'zlar yordamida qog'ozda ifodalash usulini, tilning amalda qo'llanilishi va reallashuvini bildiradi. O'gzaki va yozma nutq esa kommunikatsiya va interaktsiya vositasi, ishoralar tizimi, fikrni ifodalash va hosil qilish quroli, vositasidir[5].

Yozma nutq inson bosh miyasi faoliyati boshqaradigan murakkab ruhiy jarayon bo'lib, uning tovush va harfiy jihatlari tashqi (moddiy), nutqharakat, eshitish, ko'ruv va qo'lharakat timsollarida ifodalanishi ichki tomoni deyiladi. Har ikkalasi nutqiy dinamik stereotipni tashkil etadi. I.P.Pavlov tadqiqotlaridan



ma'lumki, dinamik stereotip deganda shartli va shartsiz reflekslardan iborat muvofiqlashgan hamda barqarorlashgan belgilar tizimi tushuniladi. Chet tilida belgilar stereotiplari va nutq mexanizmlari tafakkur va yozma nutq shakllanishi chog'ida beixtiyor hosil bo'ladi va ong ostida yaratilgan fikrlarni amaliyotga qo'llash orqali faoliyat ko'rsatadi. Chet til o'rganishda oldin o'rganilgan tillar asosida o'xshash elementlar (tovush, so'z, gap tuzilishi) mavjud nerv bog'lanishlari, yot elementlar esa – yangi bog'lanishlar paydo etishi tufayli ikkilamchi belgilar sistemasi yordamida yaratiladi. L.S.Vigotskiy tadqiqotlaridan ma'lumki, chet tillarda nutq rivojlanishi ona tilida nutq rivojlanishidan tubdan farq qiladi.[6]

Og'zaki nutq bolalik davrida ong ishtirokisiz va maqsadli rivojlantirilmaydi. Bola nutqi va tafakkuri hayotiy tasavvurlar negizida parallel rivojlanadi. Ya'ni bola ongida shakllangan fikrni ifodalash maqsadida til vositalaridan foydalanadi va shu tariqa o'zini o'rab turgan borliqni anglay boshlaydi. Borliqni anglash jarayonida til bilan ifodalanadigan tushunchalar shakllanib boradi. Chet tilida nutq rivojlanish jarayonida bir muncha murakkab kechuvchi jarayon bo'lib, unda dastlabki tasavvur va fikrlar mutlaqo boshqacha gavdalanadi. O'quvchi chet tilini o'rganishga kirishganida ixtiyoriy ravishda ma'lum darajada ona tilidagi til va yozma nutq tajribalariga hamda shu tilda asosiy fikrlash operatsiyalarini amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchi fikrlashni emas, balki fikr ifodalashning o'zga til va madaniyatga xos vosita hamda usullaridan adekvat foydalanish kompetentligini rivojlantiradi. Bu esa o'z navbatida o'rgatishning onglilik prinsipiga ahamiyat qaratilishi lozimligini talab etadi. Ya'ni kommunikativ kompetensiyaning egallanishi uchun fonetika, leksikaga va grammatikaga oid til materiali metodik tayyorlanadi va yozma ko'nikmalari taqdim etiladi. Yozma nutq rivojlanish jarayonida bola nafaqat til tizimini, balki o'z histuyg'ularini, ichki kechinmalarini, va xohish-istagini ifodalash vositalarini ham o'zlashtiradi. Shu tariqa yozma nutq o'quvchining shaxsiy «men»ini



shakllantiruvchi vosita sifatida ijtimoiylashuv va individuallashuvga xizmat qiladi. 15 yoshli bolaning yozma nutqi muloqot quroli vazifasini bajarib, amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda ro'yobga chiqadi. Unda dialogik nutq paydo bo'ladi. Qiziqtirgan narsalar haqida savollar berish yoki dars jarayonidagi savollarga javob qaytarish dialogik nutqni taqozo etadi. Dialogik nutq orqali avtomatik tarzda chet tilining grammatik tuzilishini faol egallash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Dialogik nutq o'quvchining kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyatining ajralmas tarkibiy qismidir. An'anaviy chet til o'rgatishning dastlabki bosqichlarida monologik nutqni o'rgatishga ko'proq ahamiyat qaratilgan. Masalan, darslik-majmualarda "These are dogs", "Those are cats" kabi misollar uchraydi. Bunday misollar esa A.Zimnyaya, V.Passovlarning fikricha, kommunikatsiya yoki interaksiyani emas, yozma nutq faol harakatni bajarishga o'rgatadi. Og'zaki nutq harakatni bajarishda esa motivatsiya bo'lmaydi. Ma'lumki, o'quvchiga ona tilidagi yozma nutq hayot uchun zarur qurol, muloqot vositasi sifatida rivojlanadi. Chet tillarini o'rganishda tashqi motivatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning xalqaro sertifikatlarga bo'lgan imtiyozlarni kengayib borishi tillarni o'rganishga keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Chunki o'quvchida o'yin-motivatsiyasi va raqobat muhiti kuchli bo'ladi va undan foydalanish har qanday til birligini o'rgatishda kommunikativ amaliy ahamiyatga ega. Yozma nutqni rivojlantirish sohasidagi tadqiqotlarda J.Piaje tomonidan egotsentrik nutq iborasi keng qo'llab kelinmoqda. Mediatsiya nazariyasidan ma'lumki, o'quvchining bilimlarni o'rganishida kattalarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kattalar bilan hamkorlikda ta'lim olish nazariyasi muallifi Feurshteynning fikricha, o'quvchining o'rganishini uning hayotidagi muhim shaxslar, ya'ni mediatorlar tashkil etishadi. Bu shaxslar, ya'ni dastlab ota-onalar, keyinchalik tarbiyachi va o'qituvchilar bola uchun eng maqbul stimullarni tanlaydilar va uyushtiradilar, stimullarni bolaning o'rganishini ta'minlashga muvofiqlashtirib shakllantiradilar va taqdim etadilar. Shuningdek, ular bolaga taqdim etilgan



stimullarga mos javob reaksiyalarini tanlashni o'rgatadilar, qanday reaksiya to'g'ri va qaysi biri noto'g'ri ekanligini tushuntiradilar. Mediatsiya jarayonida o'quvchida yozma nutq rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan yana biri jonli nutq vaziyatlaridagi kattalar va bolalar o'rtasidagi interaktsiyada foydalaniladigan maxsus soddallashtirilgan tildir. Mutaxassislar o'quvchilar va kattalar o'rtasidagi interaktsiyani tadqiq etib, onalar farzandlari bilan interaktsiyada maxsus soddallashtirilgan tildan foydalanishlarini aniqlashgan. Yozma nutqni rivojlantirishda turli mimik harakatlar ham qisman ta'sir etib, psixologik ta'sir va boshqa turli ruhiy holatlarni, ayniqsa, hissiy kechinmalarni aks ettiruvchi kommunikativ, interaktiv, perseptiv xususiyatlarga boyligi bilan farqlanadi. Katta yoshli o'quvchilar chet tili haqida ma'lum bilimlarga ega bo'lib borishlari hamon tillararo tafovutlarni tahlil etish jarayoni faol kecha boshlaydi. Bu esa yozma nutq faoliyatida og'zaki va yozma nutqlar o'rtasidagi tafovut sabab ikkilanishga olib kelishi mumkin. Tadqiqotchilar va mutaxassislarining fikricha, o'smir yoshidagi o'quvchilarning chet til o'rganishdagi muvaffaqiyati asosida ularning gapga emas tushunchaga, grammatik qurilma, ya'ni shakliga emas, balki mazmunga e'tibor qaratishlari, interaktsiya jarayonida ikkilanish va tormozlanish holatlariga tushmasliklari muhim hisoblanadi. Chet tilini o'rganishdagi tafakkur va yozma nutq o'rtasidagi bog'lanishga oid tadqiqot ishlarini olib borgan J.Piajening "Ilmiy-kognitiv konstruktivizm" nazariyasidan ma'lumki, chet tilidagi og'zaki va yozma nutq rivojlanishida tafakkur va tasavvurdagi predmetlar, o'zaro bog'liq voqeliklar muhim ahamiyat kasb etadi. D.B.Elkonin xulosasiga ko'ra xorijiy tillarni o'zlashtirishda yozma nutqni tushunishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- a) og'zaki va yozma nutqdagi umumiy holat yoki predmetni ajrata olish;
- b) tavsiflash uchun aniq predmetga diqqat-e'tiborni to'plash;
- v) favqulodda holat yoki kutilmagan vaziyatga nisbatan his-tuyg'uni anglagan holda og'zaki va yozma nutqni boshqarish.



Bu shuni anglatadiki og'zaki nutqga nisbatan yozma nutqda fikr asosan aniq predmetga yo'nalishi, tavsiflash og'zaki nutqdan rasmiy va asosiligi bilan farqlanishi hsuningdek yozma nutqda ortiqcha hayajonga berilmaslik, ilmiylik, grammatik strukturaga qat'iy amal qilish muhim hisoblanadi[7].

Chet tilini o'rganishni boshlar ekan o'quvchi o'zini o'rab turgan borliqdagi predmetlar va ularning funksiyalari haqida ma'lum darajadagi tasavvurga ega bo'lsada, ona tilida anglangan tasavvur xorijiy til bilan ifodalashda biroz g'alizlikka uchrashi tabiiy hol. Qachonki o'quvchining predmetlar haqida tasavvurlari o'z ona tilida va xorijiy tildagi so'z ekvivalentida to'la bog'lana olsagina ingliz tilini o'rganish samaradorligi yetarlicha ta'minlanadi. Bu jarayonni A.Zimnyaya ona tilida olingan tasavvur xorijiy tildagi ko'nikmalarni egallashga faol qarshilik qiladi, xotirada mustahkamlanishida to'siqlarga uchraydi. Boshqa tomondan esa bu o'quvchidan aqliy qobiliyatlarini maksimal ishlatishni, o'quv jarayonida o'quvchining til tajribasidan to'la foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Bundan kelib chiqadi og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishda ong osti tasavvurlari bilan ona tilida hosil qilingan ko'nikmalar xorijiy tillarni o'zlashtirishda katta ahamiyat kasb etsada, ayrim hollarda o'quvchining yangi so'zlarni o'zlashtirishida ayrim qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Bu esa xorijiy tillarni o'qitish jarayonlarida o'quvchi ongida mavjud ona tili va chet tili o'rtasidagi o'zaro mutanosib bog'liqlikni aniqlash hamda bu bog'liqlikni muntazam ta'minlash choralarini ko'rishni talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son Farmoni.
- 2.Гальскова Н.Д. Современная цель обучения иностранным языкам: от комплексного подхода к интеграции. // Сборник статей международной



научнопрактической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. – М.: Просвещение, 2013.–С:27

3.Игнатова И.Б., Андреева С.М. Коммуникативная культура языковой личности студентов-филологов./ М-во образования и науки Рос. Федерatsii. Белгород: Белгор. гос.ун-т. 2004. 197с.

4.Zaripova R.A. “Chet tillar o‘qitish metodikasidan qo‘llanma” - T.:O‘qituvchi, 1986 yil.

5.Edwards A., Knight P. Effective Early Years Education: Teaching Young Children. – London. Open University Press. 2001, – P: 45.

6.Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. – М.: Академия, 2007. – С: 66-67.

7.Биболетова М.З. Обучение иностранному языку в контексте языкового образования в современной российской школе.–М.: Просвещение, 2013.–20с.

Internet saytlari

8. <https://lex.uz/docs/-2027388>

9. <https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/view/65719>

10. <https://www.teach-this.com/uz/ideas/developing-spoken-english>

11. <https://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/1409/1092>